



Ma'naviyat va uning jamiyatidagi ahamiyati

Ilmiy rahbar: **Samatov Xurshid**

Kamalova Nilufar Ramilevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

axborot texnologiyalari universiteti Samarqand

filiali, 1-bosqich talabasi,

Elektron pochta: nilufarkamalova893@gmail.com

Annontatsiya: Ushbu maqolada ma'naviyat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, tarixiy, falsafiy va diniy asoslari chuqur tahlil qilingan. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni, uning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati, diniy qadriyatlar bilan uzviy aloqasi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi muammolar va zamonaviy tahdidlar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, jamiyat, axloqiy qadriyatlar, islom, hadis, yoshlar tarbiyasi

Ma'naviyat har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi va insonlarning komil shakllanishi uchun zaruriy omildir. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar keng tarqalgan davrda ma'naviy tanazzul tahdidi kuchaymoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida begona g'oyalarning kirib kelishi, milliy qadriyatlar va diniy bilimlarning yetarli darajada bo'lmashligi ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham har bir jamiyat o'zining ma'naviy negizlarini mustahkamlashga intiladi. Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy



olamini ifodalovchi tushuncha. Ma'naviyat – bu insonning qalb boyligi, ichki olami va axloqiy fazilatlar yig'indisidir. Ma'naviyat – bu xalqning ruhi, qalbi, or-nomusi, iftixori va hayotining ma'no-mazmunidir. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi.

Ma'naviyat atamasining asosida „ma'no“ so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq.

Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtayi nazaridan yondashadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi.

Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishisiz ma'naviyatni tasavvur qilish qiyin. „ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi“, degan edi O'zbekiston prezidenti Islom Karimov. Shu sababli O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, xalqni ma'naviyatli qilish davlat siyosati



darajasiga ko'tarilgan. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviyatimiz "Avesto" va zardushtiylik ta'limotidan boshlab hozirgi kungacha shakllanib, boyib, umuminsoniy qadriyatlar bilan yonma-yon rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish, aholining keng doirasiga yoyish maqsadida respublika „Ma'naviyat va ma'rifat“ markazi tashkil etilgan. Respublika ta'lim tizimida „Ma'naviyat asoslari“ fani o'qitiladi. Ma'naviyat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING ROLI

Jamiyatlardagi totuvlik, barqarorlik, adolat va tinchlikning asosi ma'naviy qadriyatlarga borib taqaladi. Agar jamiyatda ishonch, e'tiqod, halollik kabi tushunchalar ustuvor bo'lsa, u holda huquqbuzarliklar, korrupsiya, zo'ravonlik kamayadi. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy taraqqiyot ham yuqori bo'ladi. Ma'naviyat va ma'rifat inson hayotining ajralmas qismlari bo'lib, har biri jamiyatning taraqqiyoti, axloqiy me'yorlar va madaniyatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviyat insonning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatini ifodalasa, ma'rifat ilm-fan, ta'lim va madaniyat orqali bilish va rivojlanish jarayonini anglatadi. Ularning uyg'unligi va o'zaro bog'liqligi jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy adolat va ahloqiy to'g'rilikni saqlashga yordam beradi. Ma'naviyat va ma'rifat inson hayotining ajralmas qismlari bo'lib, har biri jamiyatning taraqqiyoti, axloqiy me'yorlar va madaniyatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviyat insonning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatini ifodalasa, ma'rifat ilm-fan, ta'lim va madaniyat orqali bilish va rivojlanish jarayonini anglatadi. Ularning uyg'unligi va o'zaro bog'liqligi jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy adolat va ahloqiy to'g'rilikni saqlashga yordam beradi. Ma'naviy qadriyatlar milliy o'zlik va ijtimoiy barqarorlikning asosiy kafolati hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifatning uyg'unligi jamiyatda axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishiga va sog'lom ijtimoiy muhit yaratilishiga olib keladi.



Ma'naviyat jamiyatni rivojlantiruvchi ichki kuch bo'lib, u iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotdan ajralmas holda namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy va diniy qadriyatlar tiklanib, ma'naviyat sohasida keng islohotlar amalga oshirildi. “Ma'naviyat va ma'rifat” markazlari, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi kabi muassasalar tashkil etildi. Shuningdek, har yili turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, haftaliklar, forumlar o'tkazilib, yoshlar ongiga sog'lom e'tiqod singdirilmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli vositalar orqali yoshlar turli g'oyalarga duch kelmoqda. Bu g'oyalarning ba'zilar milliy an'analarimiz va diniy qadriyatlarimizga ziddir. Shuning uchun ham oilada, maktabda, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiyaga e'tibor kuchaytirilmoqda. Har bir yoshni milliy g'urur, Vatanga sadoqat, insoniylik, sabr-toqat ruhida tarbiyalash davr talabi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat – bu jamiyatning ruhi, xalqning ongi, kelajak avlodning yo'l xaritasidir. U jamiyatni birlashtiradi, fuqarolarni ezgulik sari yetaklaydi. Har bir inson o'zining ma'naviy dunyosini boyitish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shunday ekan, ma'naviyat masalasiga davlat siyosati darajasida yondashish, uni har bir sohada targ'ib qilish va rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch-(4-bet)”O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish yo'llari “bo'limidan – T.: Ma'naviyat, 2017.
2. T. Qori-Niyoziy. Ma'naviyat asoslari-(8-bet) – T.: O'zbekiston, 2005.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch-(13-bet)– T.: Ma'naviyat, 2008.
4. G'afurov B.G'. Ma'naviy qadriyatlar va zamonaviy jamiyat – 45-bet. – Samarqand, 2012.
5. S. Jo'raev. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari – 17-bet. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
6. X. Abdullayev. Jamiyat va ma'naviyat – 28-bet. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.